

GEOGRAFIK KASHFIYOTLARNI O'RGANISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Abdimuminova M – *Ko'kdala tumani
12-maktab geografiya o'qituvchisi. O'zbekiston.*

Annotatsiya. Maqolada mahalliy allomalarning tabiiy fanlarga qo'shgan ilmiy meroslari va ular tomonidan amalga oshirilgan kashfiyotlari haqida bayon etilgan. Muallif tomonidan maktab o'quvchilarga darsliklarida berilgan ma'lumotlarni tushunarli va oson o'zlashtirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida mashg'ulotni olib borish haqida tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: ilmiy meros, kashfiyot, pedagogik texnologiya, sayyoh allomalar, ekspeditsiya, koordinata, globus, karta.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОРГАНИЗАЦИИ ГЕОГРАФИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

Абдимуминова М - *Кокдальский район Учитель географии школы № 12.
Узбекистан.*

Аннотация. В статье рассказывается о научном наследии, которое местные ученые внесли в естественные науки, и о сделанных ими открытиях. Автор дает школьникам рекомендации по проведению обучения на основе современных педагогических технологий для понятного и легкого усвоения информации, изложенной в их учебниках.

Ключевые слова: научное наследие, открытие, педагогическая технология, туристические ученые, экспедиция, координата, глобус, карта.

THE USE OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE ORGANIZATION OF GEOGRAPHICAL RESEARCH

Abdimuminova M - *Kokdala district 12-school geography teacher. Uzbekistan.*

Annotation. The article describes the scientific heritage that local scientists have contributed to the natural sciences and the discoveries they have made. The author gives students recommendations on how to conduct training based on modern pedagogical technologies for an understandable and easy assimilation of the information presented in their textbooks.

Keywords. scientific heritage, discovery, pedagogical technology, tourist scientists, expedition, coordinate, globe, map.

Kirish. O'tmishda dunyoviy bilimlar beshigini tebratgan va o'lkamizda tabiiy fanlar qatori geografiya fanining amaliy jihatdan rivojiga katta hissa qo'shgan allomalarimiz M.Xorazmiy, A.Farg'oniy, Balxiy, Jayhoni, Ibn Sino, M.Qoshg'ariy kabi mutafakkirlarning ishlari alohida ahamiyatga ega. Kelajak avlodga allomalarimizni bizga qoldirgan bitmas-tuganmas ilmiy meroslarini yetkazib berish va o'quvchilar ongiga singdirish muhim ahamiyatga ega. Maktabda geografiya fanida O'rta Osiyodan yetishib chiqqan allomalarning ilmiy merosidan foydalanish katta samara beradi.

Asosiy qism. Geografiya-eng qadimiy fanlardan biridir. Ibtidoiy jamoa davrlaridayoq geografik dunyoqarash kurtaklari paydo bo'lgan. Bu ko'hna ilm insoniyat ilmiy tafakkurining birinchilaridan bo'lib shakllangan yo'nalishlaridan biri ekanligi hech kim shubha qilmaydi. Kishilik jamiyati tarixida ko'pchilik fanlarning asoschisi bo'lganligi uchun "birinchi muallim" deb e'tirof etiladigan Aristotel (Arastu) ham, butun Sharqda Aristoteldan so'ng "ikkinchi muallim" nomi bilan mashhur bo'lgan Forobiy ham, matematika, astronomiya va boshqa fanlarning asoschisi deb tan olingan.

Yangi texnologiyalardan foydalanishning asosini o'quvchilarni faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyat tashkil etadi. Geografiya dars jarayonida zamonaviy yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish yaxshi natija beradi. Dars o'tishda metod to'g'ri tanlanmasa, o'qituvchining bilimi yuqori darajada bo'lishidan qat'iy nazar, kutilgan natijani bermasligi mumkin. Geografiya fanni o'rganishda "Geografik kashfiyotlar va hozirgi zamon geografiyasi" 7-sinf darsligining 1-bob 2- mavzusida muhim o'rin tutadi. Biz ushbu metodlarni amalda qo'llab ko'rish uchun Ko'kdala tumanidagi 12-sonli umumiy ta'lim maktabida tabiiy fanlardan 7 «a» va 7«b» sinf o'quvchilarini yoshini hisobga olib yangi pedagogik texnologiyalarini tanlashga harakat qildik. Yuqoridagi mavzuni o'tishda "Men kimman" texnologiyasini qo'llab ko'rdik. Bundan tashqari xuddi shu sinf o'quvchilari bilan boshqa mavzularni o'rganishda ham bir nechta yangi pedagogik texnologiyalardan foydalandik. Bunday darslar odatdagi an'anaviy darsdan ko'ra o'z samarasini bermoqda. Misol tariqasida 1 soatlik dars jarayonini keltirishimiz mumkin.

"Men kimman" texnologiyasi. Bu metod 7 sinf 3§ "Yer yuzining kashf etilishi va o'rganilishi" mavzusini o'tishda qo'llanildi. Ushbu texnologiya o'quvchilarning dars jarayonida mustaqil fikrlashiga, o'z fikrlarini erkin bayon etishiga hamda ularda o'zini namoyon qilish madaniyatini tarbiyalashga qaratilgan bo'lib, odatda, bunday mashg'ulot o'quvchilarni kichik guruhlariga ajratgan holda o'tkaziladi.

Bu texnologiyaning maqsadi shundan iboratki, o'quvchilarni o'z o'zini boshqarishda, imkoniyatlaridan foydalanishda samaralidir. Ayniqsa, o'quvchilarni mahalliy allomalar haqidagi boy meroslari o'rganib, bilim olishlarini ta'minlash, ular haqidagi ma'lumotlarni yaxshi o'rganish va esda saqlash imkoniyatlarini oshirish maqsadida qo'llasa bo'ladi

"Men kimman" texnologiyasi amaliy, laboratoriya, fakultativ mashg'ulotlarda va darsdan tashqari vaqtda o'tkaziladigan tarbiyaviy soatlarda qo'llanishi mumkin bo'lib, mashg'ulot jamoa va kichik guruh shaklida o'quv auditoriyasida yoki tabiat qo'ynida o'tkazilsa katta samara beradi.

Mashg'ulotda foydalaniladigan vositalar. O'qituvchi o'quvchilarga o'tilgan mavzu bo'yicha oldindan tayyorlab qo'ygan materiallari, ya'ni sayohatchi olimlar rasmlarini ko'rsatib, ularni hayoti va qilgan ishlari haqida ma'lumot beradi. Bu ma'lumotlarni o'quvchilar eshitgach, "Men kimman" savoliga javob berishadi.

1.Dunyoning birinchi xaritasini tuzganman. Mening xaritamda Janubiy Yevropa, Shimoliy Afrika va Osiyoning g'arbiy qismlari tasvirlangan. Men kimman? (Eratosfen)

2.Eramizning II asrida dunyo xaritasini ancha mukammalroq tuzganman. Unda Yevropa va Osiyoning katta qismi xamda Afrikaning shimoli tasvirlangan. Men kimman? (Ptolomey)

3.O'rta Osiyolikman. 1004-1088 yillarda yashab o'tganman. Janubiy G'arbiy Osiyo va Shimoliy Sharqiy Afrikada sayohat qilib, juda ko'p geografik ma'lumotlar to'planganman. Yetti yil davom etgan ikkita sayohatim davomida 15 ming kilometrdan ortiq yo'lni bosib o'tganman. Men kimman? (N. Xisrov)

4.1492 yilda ekspeditsiya Hindistonga boshchiligimda dengiz orqali yo'l topish maqsadida Ispaniyadan g'arbga tomon suzib ketdik. Biz Atlantika okeanini kesib o'tib, Amerika qirg'oqlariga yetib bordik. Portugallar taxminan shu vaqtda Afrikani aylanib, Hindistonga borishdi. Men kimman? (X. Kolumb)

5.1519-1522 yillarda Dunyoni g'arbdan sharqda tomon aylanib chiqdik. Yerning sharsimonligi isbotlandik. Yer yuzining katta qismi suvdan iboratligini aniqlandim. Tinch okeanini kesib o'tdik. Men kimman? (F. Magellan)

6. Men 1483-1522 yillarda yashab o'tgan, tarixnavis, geograf, etnograf, mashhur shoir va adolatli shohman. Farg'ona, Afg'oniston, Hindiston tabiati haqida ko'plab ma'lumotlar keltirib, o'z kitobimni yozganman. Men kimman? (Z. M. Bobur)

7. VIII asr oxiri IX asr boshida yashab, ijod qilgan mashhur matematik, astronom va geografman. Yerning sharsimon ekanligini aytib berganman. Yer yuzasidagi 525 ta geografik punkt, jumladan 200 dan ortiq tog'larning tafsiloti, mamlakatlar, okeanlar, dengizlar, daryolar, ko'llar haqida ma'lumotlar keltirganman, geografik obyektlarning aniq koordinatalarini berganman va «Surat al-arz» asari muallifiman. Men kimman? (M. Xorazmiy)

8. X asr oxiri XI asrning birinchi yarmida yashaganman. Yerning birinchi modeli globusni yasaganman va asarlarimda Yer sharining narigi tomonida xam quruqlik borligi haqida yozib qoldirganman. Dunyo xaritasini tuzganman. Men kimman? (A. R. Beruniy)

9. Men XI asrda yashaganman. "Devonu lugatit turk" asarimda ko'plab geografik joy nomlari va terminlarga izoh yozganman, dunyo xaritasini tuzganman. Men kimman? (M. Qoshgariy).

10. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasining rivojiga katta hissa qo'shgan, buyuk astronom, sayyoh, geograf va geografiyaga oid ilohov asboblari yaratganman, «Astronomiyaga kirish» kitobini muallifiman. Men kimman? (A. Farg'oniy).

11. "Sharq Arastusi" nomini olgan, matematik, astronom, buyuk faylasuf, musiqashunos, tabib, tabiiy va ijtimoiy fanlarga tegishli 160 dan ortiq ishlar muallifiman. Men kimman? (Farobiy).

O'quvchilar M. Xorazmiy, R. Beruniy, Z. M. Bobur, M. Qoshgariy, N. Xisrovlar haqida ma'lumotlar oladilar. Bunda o'quvchilarda eslab qolish qobiliyati katta rol o'ynaydi. Shu kabi sayohatchi va olimlar, allomalar hayotiga tegishli ma'lumotlar berilgandan so'ng o'quvchilar ularning kimligini aytishlari kerak. Ularning qilgan ishlaridan, geografiyaga qo'shgan hissalar haqida bilib

oladilar. Ularda ham ijodkorlik xislatlarini ortishi va fanga qiziqishi, bobokalonlarimiz, olimlarimiz qilgan ishlaridan faxrlanishlari ortadi.

Bu usulni boshqacharoq qilib o'tkazilsa ham bo'ladi, ya'ni o'quvchilarni guruhlariga ajratib, har bir guruhga bittadan olim haqida ma'lumot tanlab beriladi. Guruh a'zolari o'zlari o'rgangan ma'lumotlarni bir-biriga berib ularni kimligini topish orqali ham o'tkazilsa bo'ladi. Masalan, bir guruh a'zosida Farobiy, ikkinchi guruh a'zosida esa Xorazmiy, yana bir guruh a'zosida Bobur, to'rtinchi guruh a'zosida esa Beruniy, beshinchisida Farg'oniy va boshqa guruhlarda ham shunday ma'lumotlar bo'ladi.

Mashg'ulot davomida har bir guruh a'zolaridan bir o'quvchi chiqib, ma'lumotni ifodali o'qiydi va boshqa guruhdarga "Men kimman" savolini tashlaydi. Savolga javobini bilgan guruh javob beradi va bu jarayon barcha guruhlar o'zlarini ma'lumotlarini o'quvchilarga yetkazgungacha davom etadi.

Bu usullarni afzal tomoni shundaki, o'quvchilar oz vaqt ichida olimlar haqida o'zlari mustaqil ravishda, o'qituvchi nutqi yordamisiz ko'plab ma'lumotga ega bo'libgina qolmasdan, ular o'rtasida bir-birini eshitish, eslab qolish va bo'layotgan jarayonga befarq bo'lmaslikni shakllantiradi. O'quvchi olimlar, sayohatchilarning xayotlarini o'qib berish bilan ifodali o'qishni o'rganadi. Bu orqali u o'zini shu olim deb tasavvur etib faxrlanib o'qiydi. Natijada unda nutq yanada rivojlanadi, o'zini ko'pchilik orasida tutishni o'rganadi. Boshqa eshitayotgan o'quvchilar esa darsni tinglashadi, shoshma-shosharlikka yo'l qo'ymaydi, chunki birgina e'tiborsizlik bilan xato javob berib qo'yishi mumkin bo'ladi. Shuning uchun ular darsni diqqat bilan tinglashlari kerak bo'ladi. Gurux a'zolarining bittasi ham darsga e'tiborsiz bo'lmaydi.

Xulosa. Jamoa bo'lib ishlash o'quvchidan, o'zidan boshqalariga nisbatan hurmatni, ularni eshita bilishni, tahlil qilishni va o'z ustida ishlashni taqozo etadi. Yana shuni ham aytish mumkinki, o'quvchilar o'zlariga xam "men kimman" degan savolni beradilar. Chunki ular qolgan ishlari tufayli barchani yodida qolishlari, ular haqida faxrlanib gapirishlari uchun "men nima qildim", "hozir qanday o'qiyapman", "kelajakda kim bo'laman" degan savollarni o'zlariga berishadi.

Bunda mazkur metod tarbiyaviy rol o'ynaydi. Kashfiyotlar qilgan dunyodagi mashxur geograf olimlar, sayyohlar qatori mahalliy allomalarimiz boy ilmiy meroslaridan geografiya darsida foydalanish vatanparvarlik g'oyalarini shakllantirishda eng muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Jankabilov I.X. Abdullayev S.I., Usmanova R. Beruniyning geografiyaga oid qarashlari // Abu Rayhon Beruniyning pedagogik ta'limotidan foydalanish imkoniyati: muammolar va yechimlar mavzusida xalqaro miqyosda ilmiy-amaliy anjuman // T.: 2023 y. 65-68 b.
2. Usmanova R., Shodiyeva U. O'rta Osiyolik mutafakkirlarning geografiya fani taraqqiyotida ilmiy meroslari // ИУСЕР Экономика и социум международный научно- практический журнал 6(84) 2025
3. Ҳасанов Ҳ.Ҳ. Сайёҳ олимлар. Т., 1981.
4. Ҳасанов Ҳ. Ўрта Осиёлик географлар ва сайёҳлар. – Т.:Фан, 1962.
5. Geografiya 7/ 7-sinf uchun darslik / Mirakmalov M.A. va b./ T.: Respublika ta'lim markazi-2022. 176 b.